




RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA
ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI
HIMOYA QILISH QO'MITASI

marketing.uz

LIVEDUNE



DIGITAL MARKETING AWARDS MUKOFOTINING REGLAMENTI

1. UMUMIY QOIDALAR
2. MUKOFOT TASHKILOTCHILARI
3. NOMINATSIYALAR
4. G'OLIBLARNI ANIQLASH MEZONLARI VA TARTIBI
5. SOVRINLAR
6. KONTAKT MA'LUMOTI

1. UMUMIY QOIDALAR

Digital Marketing Awards — har yilgi Tashkent Digital Marketing Forum mukofoti bilan o'tgan yildagi eng muvaffaqiyatli brendlar, agentliklar, shuningdek eng shov-shuvli loyihalar va maqolalarga ega bo'lgan raqamli kontent mualliflari taqdirlanadi.

Mukofotdan maqsad – keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilib, shu orqali raqamli maydonchalarni rivojlantiruvchi kontent yaratadigan brendlar, loyihalar va mualliflarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

2. MUKOFOT TASHKILOTCHILARI

Mukofot tashkilotchilari:

- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi;
- O'zbekiston marketing uyushmasi

“Tanish-Bilish” agentligi, “Live Dune” servisi ko'magida.

3. MUKOFOT NOMINATSIYALARI

3.1. RAQAMLI KONTENT MUALLIFLARI BLOKI

NOMINATSIYALAR RO'YXATI*

1. 2022-yilning eng yaxshi ta'limiy kontenti
2. 2022-yilning eng yaxshi biznes-kontenti
3. 2022-yilning eng yaxshi lifestyle-kontenti
4. 2022-yilning eng yaxshi ko'ngilochar kontenti
5. 2022-yilning eng yaxshi avto-kontenti
6. 2022-yilning eng yaxshi sport kontenti
7. 2022-yilning eng yaxshi tibbiyot kontenti
8. 2022-yilning eng yaxshi ota-onalar kontenti
9. 2022-yilning eng yaxshi pazandachilik kontenti
10. 2022-yilning eng yaxshi intervyu va podkasti
11. 2022-yilning eng yaxshi ijtimoiy kontenti

* Nominatsiyalar sub nominatsiyalarga bo'linishi mumkin.

3.2. O'zbek va rus tillaridagi kontent mualliflari alohida taqdirlanadi.

3.3. Baholash uchun quyidagi internet-maydonchalar ko'riladi: YouTube, Instagram, Telegram, Facebook, TikTok.

3.4. LIVEDUNE TALQINI BO'YICHA AGENTLIKLAR VA BRENDLAR BLOKI

1. The Best Agency Account

O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng yaxshi akkaunt sohibi bo'lgan agentlik

2. The Best Community Agency

O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da faol obunachilari eng ko'p bo'lgan agentlik

3 Amazing Activity Agency

O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng faol va turli-tuman postingga ega bo'lgan agentlik

4. Amazing Activity

O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`dagi nashrlari soniga ko'ra eng faol agentlik

5. Like of the year

O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`dagi eng mashhur post egasi bo'lgan agentlik

6. Fire communication

O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng ko'p sharhlangan post egasi bo'lgan agentlik

7. Engage of the year

O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng jalb qiluvchan post egasi bo'lgan agentlik

8. Like of the year

O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng mashhur post egasi bo'lgan brend

9. The Best virus post

O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng viral post egasi bo'lgan brend

10. Fire communication

O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng ko'p sharhlangan post egasi bo'lgan brend

11. Engage of the year

O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng jalb qiluvchan kanal egasi bo'lgan brend

3.5. "LiveDune" servisi baholashi uchun O'zbekiston marketing uyushmasining 2022-yilgi Agentliklar reytingida taqdim etilgan 55 ta agentlik (<https://marketing.uz/rejtingi/rejting-agentstv/>) va O'zbekiston marketing uyushmasining 2022-yilgi Brendlar reytingining TOP-100 brendi (<https://marketing.uz/rejtingi/rejting-brendov/>) tanlab olinadi.

4. OVOZ BERISH MEZONLARI VA TARTIBI

4.1. Raqamli kontent mualliflari bloki uchun sovrindorlarni tanlash mezonlari:

- 1) Obunachilar, qamrov va jalb qiluvchanlik nisbati.
- 2) 2022-yildagi nashrlar chastotasi (kamida oyiga 1 marta)
- 3) Mavzuga muvofiqlik. Kontentning kamida 50%i ko'rsatilgan nominatsiyaga mos kelishi kerak.
- 4) Mualliflik yondashuvi. Begona kontentdan noinsoflik bilan foydalanilmaganligi.
- 5) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi (jumladan, "Reklama to'g'risida"gi Qonun)ga.
- 6) Auditoriyasi zo'raki, jumladan "g'iv", tanlov va boshqalar orqali kengaytirilgan mualliflar ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi.

4.2. Sovrinlar sohiblarini "Tashkent Digital Marketing Forum 2023" kuratorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan tanlaydilar. Kuratorlar ro'yxati (<https://marketing.uz/digital-forum/>)

4.3. Agentliklar va brendlar bloki uchun sovrinlar sohiblarini aniqlash mezonlari:

1. The Best Agency Account (O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng yaxshi akkauntga ega agentlik)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingidagi agentliklarning Instagram`dagi ochiq akkauntlari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. G'olib ikki bosqichda saralanadi – miqdor va sifat tahlili: birinchisida posting muntazamligi, har bir postga qo'yilgan layklar o'rtacha soni, postga sharhlarning o'rtacha soni, jalb qiluvchanlik darajasi (ER)dan kelib chiqib TOP-da'vogarlar belgilanadi. Ikkinchi bosqichda TOPdagi agentliklar kontentlari tahlil qilinadi (turli-tumanligi – kamida 3 ta rukn, shunchaki loyihaning akkaunt-peshtaxtasi emas), foydalanuvchilar/obunachilar bilan sharhlarda kommunikatsiya.

2. The Best Community Agency (O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da faol obunachilari eng ko'p bo'lgan agentlik)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingidagi agentliklarning Instagram`dagi ochiq akkauntlari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Nominatsiya g'olibi deb post ostida eng ko'p reaksiya (layklar va sharhlar)ga ega akkaunt topiladi.

3. Amazing Activity Agency (O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng faol va turli-tuman postingga ega bo'lgan agentlik)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingidagi agentliklarning Instagram`dagi ochiq akkauntlari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Nominatsiya g'olibi deb eng faol akkaunt, ya'ni tahlil davrida eng ko'p post chop etgan, shuningdek turli-tuman kontent (kamida 3 ta ruknga ega, shunchaki loyihaning peshtaxta-akkaunti emas) akkaunt topiladi.

4. **Amazing Activity** (O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`dagi nashrlari soniga ko'ra eng faol agentlik)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi agentliklarning Instagram`dagi ochiq akkauntlari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Eng faol akkaunt, ya'ni tahlil davrida eng ko'p postlar chop etilgan akkaunt nominatsiya g'olibi deb topiladi.

5. **Like of the year** (O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`dagi eng mashhur post egasi bo'lgan agentlik)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi agentliklarning Instagram`dagi ochiq akkauntlari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Nominatsiya g'olibi deb eng ko'p layk yiqqan post topiladi. Tanlovlar va ovoz berishli nashrlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar yoki bir ijtimoiy tarmoq ichida akkauntlar/botlar o'rtasida foydalanuvchilar rotatsiyasiga yo'naltirilgan postlar bundan mustasno, chunki ulardagi barcha reaksiyalarni organik deb sanab bo'lmaydi. Shuningdek, promotiratsiyadagi postlar ham inobatga olinmaydi.

6. **Fire communication** (O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng ko'p sharhlangan post egasi bo'lgan agentlik)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi agentliklarning Instagram`dagi ochiq akkauntlari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Nominatsiya g'olibi deb eng ko'p sharh yiqqan post topiladi. Tanlovlar va ovoz berishli nashrlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar yoki bir ijtimoiy tarmoq ichida akkauntlar/botlar o'rtasida foydalanuvchilar rotatsiyasiga yo'naltirilgan postlar bundan mustasno, chunki ulardagi barcha reaksiyalarni organik deb sanab bo'lmaydi. Shuningdek, promotiratsiyadagi postlar ham inobatga olinmaydi.

7. **Engage of the year** (O'zbekistondagi 2022-yilda Instagram`da eng jalb qiluvchan post egasi bo'lgan agentlik)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi agentliklarning Instagram`dagi ochiq akkauntlari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Nominatsiya g'olibi deb eng ko'p jalb qiluvchanlikka ega bo'lgan (ER) post topiladi. Tanlovlar va ovoz berishli nashrlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar yoki bir ijtimoiy tarmoq ichida akkauntlar/botlar o'rtasida foydalanuvchilar rotatsiyasiga yo'naltirilgan postlar bundan mustasno, chunki ulardagi barcha reaksiyalarni organik deb sanab bo'lmaydi. Shuningdek, promotiratsiyadagi postlar ham inobatga olinmaydi.

8. **Like of the year** (O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng mashhur post egasi bo'lgan brend)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi agentliklarning Telegram`dagi ommaviy kanallari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Kanal yuritmaydigan shaxsiy guruhlari yoki botlariga ega, tahlil davrida post qo'ymagan brendlar hisobga olinmadi. Nominatsiya g'olibi deb eng ko'p reaksiya ega bo'lgan post topiladi. Tanlovlar va ovoz berishli nashrlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar yoki bir ijtimoiy tarmoq ichida akkauntlar/botlar o'rtasida

foydalanuvchilar rotatsiyasiga yo'naltirilgan postlar bundan mustasno, chunki ulardagi barcha reaksiyalarni organik deb sanab bo'lmaydi.

9. The Best virus post (O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng viral post egasi bo'lgan brend)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi brendlarning Telegram`dagi ommaviy kanallari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Kanal yuritmaydigan shaxsiy guruhlari yoki botlariga ega, tahlil davrida post qo'ymagan brendlar hisobga olinmaydi. Nominatsiya g'olibi deb eng ko'p repostga ega bo'lgan post topiladi. Tanlovlar va ovoz berishli nashrlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar yoki bir ijtimoiy tarmoq ichida akkauntlar/botlar o'rtasida foydalanuvchilar rotatsiyasiga yo'naltirilgan postlar bundan mustasno, chunki ulardagi barcha reaksiyalarni organik deb sanab bo'lmaydi.

10. Fire communication (2022-yilda O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng ko'p sharhlangan post egasi bo'lgan brend)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi brendlarning Telegram`dagi ommaviy kanallari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Kanal yuritmaydigan shaxsiy guruhlari yoki botlariga ega, tahlil davrida post qo'ymagan brendlar hisobga olinmaydi. Nominatsiya g'olibi deb eng ko'p sharhga ega bo'lgan post topiladi. Tanlovlar va ovoz berishli nashrlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar yoki bir ijtimoiy tarmoq ichida akkauntlar/botlar o'rtasida foydalanuvchilar rotatsiyasiga yo'naltirilgan postlar bundan mustasno, chunki ulardagi barcha reaksiyalarni organik deb sanab bo'lmaydi.

11. Engage of the year (2022-yilda O'zbekistondagi 2022-yilda Telegram`da eng jalb qiluvchan kanal egasi bo'lgan brend)

Nominatsiya g'oliblarini aniqlashda Marketing.uz reytingi TOP-100dagi brendlarning Telegram`dagi ommaviy kanallari ko'rib chiqiladi. Tahlil davri – 2022-yil. Kanal yuritmaydigan shaxsiy guruhlari yoki botlariga ega, tahlil davrida post qo'ymagan brendlar hisobga olinmaydi. Nominatsiya g'olibi deb eng yuqori jalb qiluvchanlik darajasiga ega (ERV) kanal topiladi. Bunda tahlili etilayotgan davrda kamida 25 ta post (o'rtacha, oyiga 2 ta) qo'yilganligi, reaksiyalar va sharhlar qo'shilganligi inobatga olindi.

4.4. G'oliblarni "LiveDune" ijtimoiy tarmoqlar tahlili servisi – ijtimoiy tarmoqlar statistikasi, sharhlar monitoringi va avtoposting statistikasini taqdim etuvchi MDH mamlakatlaridagi eng mashhur servis aniqladi.

5. MUKOFOT SOVRINLARI

1. Ovoz berish natijalarining e'lon qilinishi va sovrinlar topshirilishi 2023-yil 20-martda "Hilton Tashkent City" da, soat 18:00 da boshlanadigan tantanali taqdirlash marosimida o'tkaziladi.
2. Mukofotning barcha g'oliblari haykalchalar va diplomlarga ega bo'ladilar.

3. Tashikotchilar, hamkorlarning rasmiy murojaatlariga ko'ra, maxsus mukofotlar ko'rinishida qo'shimcha sovrinlar belgilashlari mumkin.

6. KONTAKT MA'LUMOTI

O'zbekiston marketing uyushmasi
100007, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 25

Tel.: +998 (97) 402-28-20, +998 (97) 430-28-20
e-mail: info@marketing.uz

sayt: <https://marketing.uz>

<https://t.me/uzbekmarketing>

https://instagram.com/uzbekmarketing?utm_medium=copy_link

<https://www.facebook.com/uzbekmarketing>

<https://www.youtube.com/c/MAKONMARKETINGUZ>